



THEORETICAL BASIS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Imomova Shafoat Makhmudovna, assistant professor, Bukhara State University, Uzbekistan.

Mardonova Maftunabonu Abrorovna, master of specialty in Applied Mathematics, Bukhara State University, Uzbekistan.

Abstract

The article provides information on the theoretical foundations of an innovative educational environment.

Keywords: education, innovative education, pedagogical activity, innovative activity.

So'nggi yillarda fanda ta'lrim berishning yangi yo'naliishi sifatida pedagogik innovatsiya rivoj topib kelmoqda. Olimlarning ta'kidlashicha, amaliyotda yo'l ko'rsatuvchi pedagogik nazariyamizning asosiy kamchiliklaridan biri - bilim va ta'limgardning ustunligini qattiq bo'rttirib yuborishdadir. Insoniy, ma'naviy, mehnat tarbiyasi zarariga bilimda yodlab olish hajmi ko'payib borishi ta'lim muassasasi hayotida odatiy hol bo'lib qoldi. Bu holatdan chiqish uchun bo'lgan har qanday harakat innovatsion deb hisoblanayapti.

Respublikamizdagagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimini, ta'lim-tarbiya metodologiyasi va texnologiyalarini tubdan yangilash zaratutini keltirib chiqardi. Bu sa o'z navbatida yosh avlodga ta'lim berish maqsadi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro bog'liq faoliyatiga yangiliklarni kiritishni talab etmoqda. Pedagoglarning innovatsion faoliyatga yo'naltirilganligi ta'lim siyosatini yangilash asosini tashkil etadi. Shu bilan birga ta'lim sohasidagi o'zgarishlar jamiyat rivojiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ta'lim jarayonini takomillashtirishning yetuk mutaxassislarini tayyorlash, barkamol shaxsnı shakllantirishga qaratilganligi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi va takomillashtiradi. Shunday qilib, innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash jamiyat rivojining zaruriy shartiga aylandi.

Pedagogikaning inson haqidagi boshqa fanlar bilan aloqasi ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni kiritishning umumilmay omillarini keltirib chiqaradi. Hozirgi kunda

pedagogika falsafiy, psixologik, biologik, iqtisodiy, ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqada. Bu fanlarda erishilgan zamonaviy yutuqlar, yangi pedagogik g'oya, nazariya, farazlarning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etib, pedagogika sohasiga ham yangiliklarni kiritish zaratutini keltirib chiqarmoqda.

O'qituvchi pedagogik faoliyatiga innovatsiyalarni kiritishning pedagogik omillari zamonaviy pedagogika fanining rivoji bilan bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonidagi innovatsion jarayonlar asosi sifatida yangi pedagogik g'oya, nazariya, konsepsiyalarni amaliyotga tatbiq etish muammosini keltirib chiqaradi.

Ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan yangiliklarning turli-tumanligi, talab etiladigan sharoitlar va vositalar o'qituvchining innovatsion faoliyatiga tadqiqiy-ijodi yususiyat beradi. Sub'ektiv omillar innovatsion faoliyatning sub'ektlari va ularning innovatsion faoliyatga tayyorgarligiga ham bog'liq. Innovatsion faoliyatning sub'ektlarini innovatsion xarakterdagi faoliyat olib boruvchi pedagog-olimlar, o'qituvchilar va ta'lim jarayonining boshqa qatnashchilari tashkil etadi.

Adabiyotlarda ko'rsatilishicha, «innovatsiya» tushunchasi XIX asrda etnografiyada paydo bo'lib, bir madaniyat elementlarini ikkinchisiga kiritishni bildirgan. XX asrga kelib ishlab chiqarish sohasiga kirib kelgan bu tushuncha ilmiy bilimlarning yangi bir sohasi, yangiliklarni kiritish haqidagi fan - innovatika sifatida shakllana boshladi. Bu fan ilmiy texnik yangiliklarni yaratish va tarqatishning iqtisodiy, ijtimoiy qonuniyatlarini o'rganuvchi fandan hozirgi kunda aniq bir faoliyatdagi yangilik qonuniyatları, tamoyillari, metod va mezonlarini o'rganuvchi fanga aylandi.

Taxminan 80 yillar avval pedagogik yangiliklar tadqiqot predmetiga aylana boshlagan. Ta'lim muassasalarini jalal rivojlantirish ehtiyoji bilan uni amalga oshirishga o'qituvchilarning tayyor emasligi orasidagi ziddiyatdan pedagogik yangiliklar mustaqil sohaga aylandi. Buning natijasida yangilikni qo'llash ommaviy

tus oldi, yangi bilimlarga ehtiyoj kuchaydi. Pedagogik innovatsiyaning «yangi», «yangilik», «innovatsiya», «innovatsion jarayon», «innovator», «innovatsion imkoniyat», «innovatsion muhit» v.b. tushunchalari kirib keldi. «Yangi» tushunchasi innovatsion pedagogikada asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Agarda birinchi - «birinchi yaratilgan» iborasi ilgari umuman ma'lum bo'lmagan biror narsa haqida tasavvur bersa, «yaqindan beri»

**International Scientific Forum "MALAYSIA":
Innovations in Economics, Social Sciences, Environment and Natural Science
December 10, 2024. Kuala Lumpur, Malaysia
ISBN 979-8-9876322-1-5**

va ayniqsa «yangitdan ochilgan» iboralari yangilikda qandaydir darajada «eskilik» elementi, ilgari bo'lgan biror narsa borligini ifodalaydi. S.I.Ojegov lug'atida «yangi»-«birinchi marotaba yaratilgan yoki qilingan, oldingisi o'rniqa yaqinda paydo bo'lgan, yaqin o'tmis yoki hozirgi vaqtida qaytadan ochilgan, yaxshi tanish bo'Imagan» deyilgan.

O.G.Xomeriki, M.M.Potashnik, A.V.Lorensov tadqiqotlarida ishlab chiqilgan innovatsiyalar tasnifi (1-jadval) umumta'lum muassasalari rahbarlari uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

1-jadval. Innovatsion jarayon tarkibi.

Komponentlар	Komponentlarning xarakterli xususiyatlari
Faoliyat	Quyidagi komponentlar majmuasini ifodalaydi: motivlar-maqsad-vazifalar-mazmun-shakllar-metodlar-natijalar.
Sub'ekt	Innovatsion faoliyat barcha sub'ektlarini qamrab oladi: direktor, uning muovinlari, o'qituvchilar, olimlar, o'quvchilar, ota-onalar, ekspertlar, ta'lim organlari ishchilari.
Miqyos	Sub'ektlarning o'zaro bog'liq innovason faoliyatini halqaro, respublika, viloyat, shahar, maktab darajalarini aks ettiradi.
Mazmun	Ta'lim, tarbiya ishlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, boshqarishda yangilikning paydo bo'lishi, uni ishlab chiqish va o'zlashtirish.
Hayotiy sikk	Yangilikning paydo bo'lishi-jadal o'sishi-yetuklik-o'zlashtirish-diffuziya-boyishi-eskirishi-yakun bosqichlari.
Innovatsiya genezisi	Paydo bo'lishi-g'oyani ishlab chiqish-loyihalash-tayyorlash-qo'llash.
Boshqarish	Rejalashtirish-tashkil etish-rahbarlik-nazorat.
Tashkillashtirish	ashhis, bashorat, tashkillashtirish, amalyot, umumlashtirish, tatbiq etish bosqichlari.

V.A.Slastenin, L.S.Podimovalar tadqiqotlarida yangilik absolyut, nisbiy, psevdo, sub'yektiv yangiliklarga ajratilgan (2-jadval).

2-jadval. Yangilik turlari.

Yangilik turi	Yangilikning xarakterli xususiyati
Absolyut yangilik	Noma'lum bo'lgan «yangilik», unga o'xshashi bo'Imagan.
Nisbatan yangi:	
1) Xususiy	Zamonaviylashtirish nuqtai nazaridan ayrim elementlar yangilanadi. Avvaldan ma'lum elementlar orasidagi bog'lanishlarni o'zgartirish asosida murakkab va rivojlantiruvchi o'zgarishlar kelib chiqadi.
2) Shartli	Boshqa sohalarda qo'llanilgan yangilikni aniq vaziyatlarga tatbiq etish, noyobligi, umumlashtirish darajasiga ko'ra boshqa yangilikni keltirib chiqaradi.
3) Joyli	
Psevdo yangilik	Yaxshiroq emas boshqacharoq bo'lishiga intilish.
Sub'ektiv yangilik	Sub'ekt uchun yangi. Boshqlarga ma'lum, lekin alohida olingan inson, jamaa yoki jamiyat uchun yangi predmet yoki hodisa.

N.V.Bordovskaya va N.V.Reanlar maktablar hamda oliy o'quv yurtlaridagi yangiliklarni tasniflaganlar (3-jadval).

3-jadval. Ta'lim sohasidagi yangiliklar.

Tasnif belgilari	Yangiliklar turlari
Ta'lim jarayonining u yoki bu qismiga mosligiga ko'ra	pedagogik jarayonning metod, vosita, uslub, texnologiyalarida; ta'lim-tarbiyani tashkil etish shakl va yo'llarida; ma'muriyat, o'qituvchilar, o'quvchilar faoliyatida.
Yangilikning innovatsion imkoniyatlari	o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan oldindan qabul qilingan va ma'lum bo'lganlarni zamonaviylashtirish; kombinator yangiliklar; radikal o'zgarishlar.
O'zidan oldingisi bilan aloqasiga ko'ra	o'rnini almashtiruvchi; bekor qiluvchi; eskinii takomillashtiruvchi.
Yangilik miqyosi	lokal va ayrim, maktab yoki OTMdagi bir-biri bilan bog'liq bo'Imagan; kompleks, bir-biri bilan o'zaro bog'liq o'zgarishlar; tizimli, ta'lim tizimi sifatida maktab yoki OTMni qamrab olgan yangilik.

Nazariy va amaliy pedagogika uchun an'ana va innovatsiyalarning har ikkalasi ham muhimligidan ular orasidagi nisbat masalasi katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy tajribada «norma», «an'ana» tushunchalari barqarorligi mustahkam tushunchalardir.

Ular ijtimoiy tajribani saqlaydi, innovatsiya esa o'zgartiradi. An'ana va innovatsiyalarni mutanosiblikda qo'llash rivojlanishga sharoit yaratadi, ularning o'zgaruvchan o'zaro munosabati birgalikda mavjud bo'lish, o'z funksiyalarini amalga oshirish va rivojlanish imkoniyatini beradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati - ta'lif sifatini oshirishga intilishdagi o'qituvchi faoliyati bilan o'quvchilar faoliyatining o'zaro ta'siri va o'zaro aloqasi shaklidir.

References:

1. Bordovskaya N.V., Rean A.A. Pedagogika. Uchebnik dlya vuzov.-S.-P.: Piter,2000.-304 s.
2. Imamova Sh.M. Methodology of Development of Programming Skills in Mathematical Systems in Students Based on Computer Simulation Trainers// NATURALISTA CAMPANO Volume 28 Issue 1, 2024, -pp. 551-557.
3. Imamova Shafoat Mahmudovna. A SIMULATION TRAINER'S EDUCATIONAL COMPETENCE IN THE PROCESS OF FORMING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE// INTERNATIONAL JOURNAL ON INTEGRATED EDUCATION Volume 6, Issue 9, Sep- 2023 P.75-77.
4. Imomova Shafoat Mahmudovna. KOMYUTERLI IMITASION TRENAYORLAR// УЧЕНЫЙ XXI BEKA № 4 (95), 2023 г. С.31-32.

B&M Publishing

C E R T I F I C A T E

THIS CERTIFICATE PRESENTED TO
Imomova Shafoat Makhmudovna

FOR PARTICIPATION IN
2nd International Scientific Forum
"MALAYSIA": INNOVATIONS IN ECONOMICS, SOCIAL SCIENCES, ENVIRONMENT AND NATURAL SCIENCE
December 10, 2024, Kuala Lumpur, Malaysia



Research article: THEORETICAL BASIS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

ISBN 979-8-9876322-1-5

Robert Draut,
Science editor

ISBN.org
by Bowker

ORCID

 **ULRICHSWEB™**
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

B&M Publishing

C E R T I F I C A T E

THIS CERTIFICATE PRESENTED TO
Mardonova Maftunabonu Abrorovna

FOR PARTICIPATION IN
2nd International Scientific Forum

"MALAYSIA": INNOVATIONS IN ECONOMICS, SOCIAL SCIENCES, ENVIRONMENT AND NATURAL SCIENCE
December 10, 2024, Kuala Lumpur, Malaysia



Research article: THEORETICAL BASIS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

ISBN 979-8-9876322-1-5

Robert Draut,
Science editor

ISBN.org
by Bowker

ORCID

 **ULRICHSWEB™**
GLOBAL SERIALS DIRECTORY